

Hisob shartnomasi № F14
Tovar yetkazib berish bo'yicha

Toshkent sh.

«17» июн 2022 yil.

«ASIA PHARM LYUKS» MChJ (keyingi o'rinnlarda "Sotuvchi" deb yuritiladi) nomidan Ustav asosida harakat qiluvchi Rahbar Zaxriddinov K.A., va Черновчуков А.Д. (keyingi o'rinnlarda "Sotib oluvchi" deb yuritiladi), асосида, asosida harakat qiluvchi И.Х.Бодорев, ikkinchi tomonidan, mazkur shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnomaga asosan Sotuvchi Sotib oluvchiga quyida kursatilgan miqdor va narxda tovar yetkazib berish majburiyatini oladi, Sotib oluvchi esa uz navbatida tovari qabul qilib olib haqqini to'lash majburiyatini oladi:

Nº	Tovar nomi	O'Ich. Bir.	Miqdori	Narxi 1 o'Ich. bir. u-n (So'm, QQSsiz)	QQS Narxi	To'lov miqdori (So'm, QQS bilan)
1	Скарификатор одноразовый стер. "Медикон ЛТД"	шт	7 000	112,00		784 000,00
2						-
3						-
4						-
5						-
6						-
7						-
8						-
9						-
10						-
11						-
12						-
13						-
14						-
15						-
16						-
17						-
18						-
19						-
20						-
Jami:						784 000,00

1.2. Ushbu shartnomaga bo'yicha yetkazilgan tovarlar uchun to'lov, mazkur shartnomaning 1.1. bandida belgilangan miqdorda amalga oshiriladi.

II. TOVARNING NARHI VA SIFATI

2.1. Yetkazib berilayotgan tovarlarning sifati va amal qilish muddati shartnomani tuzish paytida ushbu turdag'i mahsulot uchun qo'yiladigan standartlar va texnik shartlarga muvofiq bo'lishi kerak. Tovarlarning yaroqlilik muddati umumiylashtirilgan 80 foizidan kam bo'lmasligi kerak.

2.2. Agar tovarning sifati ushbu shartnomaga talablariga javob bermasa, Sotib oluvchi Sotuvchiga hisob fakturani imzolagan kundan boshlab 30 kun ichida da'vo ariza berish huquqiga ega. Sotib oluvchi tovarlarni saqlash shartlariga rioya qilishi shart. Tovarlarni noto'g'ri saqlash yoki sotib oluvchining harakati/harakatsizligi tufayli yuz bersa, buning uchun Sotuvchi javobgar bo'lmaydi.

2.3. Tovarlarni miqdori va sifati bo'yicha qabul qilish Sotib oluvchining omborida amalga oshiriladi va tomonlar imzolagan xisob-varak bilan tasdiqlanadi. Tovarlarni yetkazib berish sanasi tomonlar xisob-varaqni imzolagan sana hisoblanadi.

2.4. Tovarlarni qabul qilishda, Sotib oluvchi tovarlarni shartnomaga hisob-varaq'i shartlariga muvofiqligini va assortimentini, miqdorini, to'liqligini tekshiradi. Agar tekshirish natijasida yetkazib berilgan tovarlarning ko'rsatilgan hujjatlarga mos emasligi aniqlansa, Sotuvchi tomonlarning kelishuviga asosan o'z ^{blag'lari evaziga} Sotib oluvchining omboriga tovarlarni almashtirish/ yetkazib berish majburiyatini oladi.

Tovar sotuvchining omboriga qabul qilingandan so'ng, tovarlarning miqdori nomuvofiqligi bo'yicha e'tirozlar qabul qilinmaydi. Sotib oluvchi 30 kun ichida Sotuvchiga qabul qilish dalolatnomasidagi tovarlarni sifati bo'yicha asosli yozma talablarini, shuningdek mustaqil ekspertiza tashkilotining xulosasini taqdim etishga haqlidi.

2.6. Yetkazib berilayotgan tovarlar davlat standartlar talablariga javob beradigan tayyor, konteynerlarga qadoqlangan bo'lishi kerak, bu tovarlarni tashish va saqlash paytida buzilish yoki shikastlanishdan saqlaydi.

2.7. Mazkur shartnomaning 2.5 bandida ko'rsatilgan tartibda nuqsonli tovarlar yetkazib berilganligi tasdiqlansa, Sotuvchi 30 kun ichida nuqsonli tovarlarni sifatli tovarlar bilan almashtirishi shart.

2.8. Sotuvchining talabiga binoan Sotib oluvchi rad etilgan tovarlarni qaytarishi kerak.

2.9. Rad etilgan tovarlarni almashtirish yoki qaytarish bilan bog'liq barcha harajatlarni Sotib oluvchi to'laydi.

III. TOVARLARNI YETKAZIB BERISH TARTIBI

3.1. Tovarlar Sotib oluvchining o'zining kuchi bilan yetkazib beriladi.

3.2. Tovarni topshirish, qabul qilish joyi Sotib oluvchining ombori hisoblanadi.

3.3. Tovarni topshirish muddati avans to'langan kundan boshlab 5 ish kununiga tashkil qiladi.

3.4. Sotib oluvchiga yetkazib berilgan maxsulot uchun barcha tegishli hujjatlarni taqdim etgan holda xisob-varaqni rasmiylashtirish sanasi Sotib oluvchi tomonidan tovarlarni qabul qilish kuni hisoblanadi.

3.5. Ushbu shartnomaning barcha shartlari kalendar kunidan keyingi kun yoki muddat boshlanishini aniqlagan voqealari sodir bo'lgan kundan boshlab hisoblanadi.

IV. HISOB KITOB QILISH TARTIBI

4.1. Mazkur shartnomaga bo'yicha tovarning umumiylashtirilgan narhi 784 000,00 () sumni tashkil qiladi shu jumladan QQS - .

4.2. Yetkazib berilgan tovar uchun haq to'lash Sotib oluvchi tomonidan ushbu shartnomaga imzolangan kundan boshlab shartnomasi umumiylashtirilgan 30 foiz miqdorda oldindan amalga oshiriladi. Qolgan 70 foizi tovar yetkazib berilgan kundan boshlab 30 kun ichida xisob-varaqga asosan to'lab beriladi.